

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“KELISHILGAN”**  
Oliy va o‘rta maxsus  
ta‘lim vazirligi:

\_\_\_\_\_ 2021 yil  
“ ”

**“TASDIQLAYMAN”**

Samarqand davlat universiteti  
rektori:  
prof. R. I. Xalmuradov



\_\_\_\_\_ 2021 yil

**5A120501 – FALSAFA (SOHALAR BO‘YICHA)  
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA  
KIRISH SINOVLARI UCHUN  
MAXSUS FANLARDAN  
DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

### **Annotatsiya**

Dastur 5A120501 – Falsafa (sohalar bo'yicha) magistraturaga kiruvchilar uchun 5120500 – Falsafa ta'lim yo'nalishining 2017-2018 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

#### **TUZUVCHILAR:**

**S.Karimov** - SamDU Yuridik fakulteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori, dotsent

**J.Yaxshilikov** - SamDU Yuridik fakulteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrası falsafa fanlari doktori, professor

**A.Samadov** - SamDU Yuridik fakulteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrası falsafa fanlari doktori, dotsent

Dastur Yuridik fakultetining 2021 yil 29 iyundagi 9-sonli kengashi yig'ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig'ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

## **Kirish**

5A120501 Falsafa (sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kirish sinovi uchun mo'ljallangan dasturda Falsafa bakalavr ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida o'qitilgan fanlar mazmuniga asoslanadi. Dasturda falsafaning rivojlanish tarixi, borliqning o'zaro aloqadorligi va rivojlanish qonun va kategoriyalari, ontologik, substantsional, munosabatdosh kategoriyalarning o'ziga xos xususiyatlari, tabiat va inson borlig'i, fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari, metod, metodologiya, metodika tushunchalari, asosiy evristik tamoyillar, global muammolar va globalik mezonlari, prognozlashtirish masalalari, tushunish va tushuntirishning o'zaro mutanosibliigi, haqiqat va amaliyot birligi, bilim turlari va shakllari, axborot, ma'lumot, bilim tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi, axborot texnologiyalari va axborotlashgan jamiyat nazariyasi, tarix falsafasi, axloq nazariyasi va olamni estetik idrok etish kabi masalalar qamrab olingan.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi – talabalarning borliq tushunchasining ma'nosi sof borliq g'oyasi, borliq va yo'qlik dialektikasi, falsafa tarixida borliqqa munosabat, energiya va energetizm, informatsion energetik axborot almashinuvi, tabiat borlig'i, inson borlig'i, ma'naviy borliq, virtual borliq, qonun va kategoriyalarni munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi, bilish, darajalari va turlarini ilmiy inqiloblarning asosiy davrlarini, dunyoning ilmiy manzarasini hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5120500 – Falsafa ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A120501 Falsafa (sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari “Borliq va rivojlanish falsafasi. Bilish nazariyasi”, “Falsafa tarixi”, “Ijtimoiy falsafa”, “Tabiatshunoslik falsafasi”, “Falsafa va fan metodologiyasi” fanlaridan yozma savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

## **BORLIQ VA RIVOJLANISH FALSAFASI. BILISH NAZARIYASI ASOSIY QISM**

### **Ontologiya**

Falsafiy tafakkur rivojida ontologiya muammosi va mohiyati.

Ontologiya tushunchasining tahlili. Borliq kategoriyasi va sof borliq g'oyasi. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq masalasida Demokrit va Platon yondashuvi. Aristotel borliq haqida. O'rta asrlar G'arb va sharq falsafasida haqiqiy borliq g'oyasi. Tasavvuf talimotida borliq muammosi. Yangi davrda borliq muammosi. Noklassik borliq haqidagi talimotlar. Borliq va mavjudlik g'oyasi. Borliqning shakllari. Inson borliqning o'ziga xos xususiyatlari. Manaviy borliq: individuallashtirilgan va obektivlashtirilgan borliq. Ijtimoiy borliq. Virtual borliq. Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Er tarixi. Insonning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Tirik tabiat yoki hayotning paydo

bo'lishi. Hayotning paydo bo'lishi haqidagi falsafiy optimizm. Jonli narsalarning jonsiz narsalarga bog'liqligi. Jonli narsalarning o'ziga xos xususiyatlari.

### **Borliqning tuzilishi**

Substansiya g'oyasi. Substansiya va substrat tushunchasi. Falsafa tarixida substansiyaga monistik, dualistik, plyuralistik yondashuvlar. Monizmning shakllari. Substansiyaning nazariy xususiyatlari va amaliy ahamiyati.

Materiya tushunchasining vujudga kelishi. Materiya haqidagi tasavvurlar shakllanishining asosiy bosqichlari. Materiya oid konsepsiyalar tasnifi. Materiya masalasida dialektik fikrlashning zarurati. Obektning ontologik modeli. Materiya kategoriyasining funksiyalari. Materiyaning umumiylik nuqtai nazariyadan tarifi. Materiyaning tashkil topish darajalari. Mikro-makro va megaolamning tavsifi. Mikroolamning xususiy jihatlari. Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Dunyoning birligi va rang barangligi. Dunyo birligining fundamental asoslari. Dunyoning yagonaligi va uning moddiyligi. Dunyoning yaxlitligi va rang-barangligi dialektikasi. Dunyo birligi haqidagi fan dalillari. Intensiv va ekstensiv cheksizlik. Relyativistik kosmologiyada olamning cheksizligi muammosi. Olamning kosmologik modellari. Kengayuvchi olam gipotezasi. I.Kantning kosmologik antinomiyalari va ularning hozirgi talqini.

Olamning chekliligi va cheksizligi. Cheklilik va cheksizlikning ziddiyati. Cheklilik va harakatning o'zaro nisbati. Potensial va aktual cheksizlik. Cheksizlik cheklilikning inkori sifatida. Cheksizlik cheklanmaganlik, nomuayyanlik va benihoyalik sifatida.

### **Borliq tuzilishida makon va vaqt dialektikasi**

Falsafa tarixida makon va vaqtga turli munosabatlar tasnifi. Substansional va relyasion yondashuvlar, dinamik va statik konsepsiyalar. Makonning uch o'lchovligi va ko'p o'lchovligi. Makon va vaqtning metrik va topologik xossalari. Vaqt tartibi va yo'nalishi. Ijtimoiy vaqt. Tarix vaqti. Davrning ruhi va ijtimoiy vaqt uyg'unligi. Ijtimoiy makon va uning o'zgaruvchan xarakteri. Ijtimoiy makonda shaxsning roli.

Hozirgi zamon madaiyatida vaqt va abadiylik muammosi. Mehnat vaqti va dam olish vaqti mutanosibli.

### **Harakat borliqning yashash sharti.**

O'zgarishlarning umumiy xususiyati. Harakat va harakatsizlikning o'zaro nisbati. Falsafa tarixida makon va vaqtning o'zaro nisbati haqidagi tasavvurlar. Qadimgi falsafa harakat va sokinlik haqida. Geraklitning abadiy harakat va rivojlanish haqidagi g'oyalari. Platon va Aristotelning harakat mavjudligiga oid qarashlari. N.Kuzanskiy harakatsiz markazning va harakatdagi hodisalarning mavjudligi haqida. So'fizm moddiy obektlar o'zgaruvchanligining sababi haqida. (Ibn Arabiy, G'azzoliy). 19-asrgacha jismlarning mexanik o'rin almashinuvini harakat deb tushunishning sababi. Harakat tiplari. Rivojlanish. Rivojlanishning asosiy va ikkinchi darajali yo'nalishlari. Hozirgi zamon falsafasida harakat tushunchasi.

Harakat shakllarining umumiy tavsifi haqidagi qarashlar evolyusiyasi. Harakat shakllarining tasnifi. Harakat shakllarining nisbiy mustaqilligi. Materiya harakatining asosiy, xususiy va kompleks shakllari. Harakatning geologik shakli.

Harakatning texnik, kibernetik, informatsion shakllari. Materiya harakat shakllarini tasniflash tamoyillari va ularning o‘zaro aloqasi.

### **Tabiat borlig‘i**

Tabiat tushunchasining falsafiy tahlili. Falsafa tarixida tabiatga munosabat. Insoniyat tarixining ilk bosqichida tabiatga munosabat. Antik davrda tabiatga munosabat. O‘rta asr va qadimgi davrda tabiatga muammosi. YAngi davrda tabiatga munosabat. O‘zbekistonda tabiat va tabiiy sharoit dialektikasi. XX asrda ekologik vaziyat va uni bartaraf etish bo‘yicha dunyo amaliyoti. Geografik muhit tushunchasi va geografik muhit parametrlari. Ijtimoiy rivojlanish va geografik muhitning o‘zaro tasiri. Geografik maktablar: tabiiy qonunlar konsepsiyasi, geografik determinizm, ijtimoiy determinizm, geosiyosat.

Ekologiyaning kelib chiqishi. Ijtimoiy ekologiya talimoti. Ekologik falokatlar tarixi. Ekologik muammoning falsafiy manosi. Koevolyusiya va invayronmentalizm tushunchasi. Jonli va jonsiz tabiat tushunchasi. Jonli tabiatni aniqlashning asosiy mezonlari. Turli falsafiy yo‘nalishlarda hayot tushunchasiga munosabat.

#### **Biosfera va noosfera borliq shakli**

Biosfera haqidagi talimotlar. Inson biosfera rivojlanishining zaruriy bosqichi. Ekodinamikani global, mintaqaviy va mahalliy miqyoslarda rivojlantirishning ahamiyati. Hozirgi dunyoda ekologiya sohasidagi oqilona siyosatning zarurati.

Dunyo miqyosidagi ekodinamikaning ayrim unsurlari. Lavlok talimotining ilmiy va ijtimoiy ahamiyati. Suniy ehtiyojlarni kondirishga qaratilgan xo‘jalik faoliyati. G.Prins va R.Stemp talimotining biosfera rivojidagi o‘rni. NORAD - Shimoliy Amerika aerokosmik himoya ko‘mondonligi. Irsiy injeneriya va uning biosferaga tasiri. Noosfera borliq shakli. Noosfera - dunyo va koinot rivojlanishidagi evolyusion sakrash. Noosferani anglashda gumanizmga asoslangan ilmiy tafakkurning ahamiyati. YAngi borliqning shakllanishi. Noosferaning chegaralari. Noosfera jarayonlari rivojlanishining turli jihatlari. Noosfera yoki insoniyat - geologik kuch sifatida. Biosfera va noosfera mutanosibligini taminlashning ijtimoiy ahamiyati.

#### **Borliqda inikos, energiya va axborotning o‘zaro tasiri**

Energiya tushunchasi va energetizm. Energiya moddiy jismlarning o‘z holatini o‘zgartirish orqali muayyan vazifani bajarish qobiliyati. Energetizmning mohiyati. Energiyaning turlari. Ruhiiy energiya. Ezoterizm da ruhiy energiya. Fikr va tasavvur energiyasi. Energetik astral holatda jamoaviylik eggorlari.

Inikos tushunchasi va uning darajalari. Inikosning xususiyatlari va shakllari. Mimikriya hodisasi. Biologik inikosning tabiiy jarayonlardagi ifodasi. Inikosning psixik shakli. P.Anoxin nazariyasi. Axborotning konsepsiyalari. Axborot tasirlarining turlari. Torsion maydonlar. Universal kosmik gologramma. Bioenergiya axborot almashinuvi.

#### **Inson borlig‘i: jon, ruh, ong**

Jon inson tanasining asosi. Ong va jonning tenglashtirilishi. Jon va ruh haqida. Senekaning jon masalasidagi qarashlari. Gilozoizm talimoti. Jonning tanada paydo bo‘lishi haqidagi talimot. O‘rta asrlar falsafasida jon - dunyoviy va

ilohiy faoliyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida. Ruh inson qalbining, ong inson borlig'ining asosi. Falsafa tarixida inson borlig'iga munosabat. Individuallik borlig'i va individual ong borlig'i. Inson borlig'ida ongning tabiati. Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Ong falsafiy muammo sifatida. Ongning falsafiy konsepsiyasi. Ijtimoiy ong borlig'i. Ongning strukturasi. Ongning funksiyalari. Ong tabiatini tushunishga nisbatan yondashuvlar. Til va ong uyg'unligi. Ongsizlikning tabiati. Antrop tamoyil. Inson borlig'ida o'zlikni anglashning namoyon bo'lishi. O'zlikni anglashda antroposotsiogenezning roli. O'zbekistonda o'zlikni anglashning namoyon bo'lish tendensiyalari. O'zlikni anglashda L.Memford va Makluen taklif qilgan yondashuvlar tasnifi. O'zlikni anglash va inson ekologiyasining uyg'unligi. Ekosofiya muammolarining yo'nalishlari. S.Grof talimoti.

### **Rivojlanish falsafasi**

Dialektikaning tarixiy shakllari va xususiyatlari: stixiyali dialektika; idealistik dialektika; falsafiy dialektik; klassik dialektika; obektiv va subektiv dialektika; noklassik dialektika; fojeiy dialektika; dialektik teologiya yoki «inqiroz teologiyasi»; salbiy dialektika.

Dialektikaning muqobillari: metafizika, dogmatizm, relyativizm, sofistika, eklektika, sinergetika: bifurkatsiya, fluktuatsiyalar, attraktor, dissiipativ tizimlar. Dialektika va metafizika rivojlanishning ikki konsepsiyasi va bilishning ikki metodi sifatidagi muqobilligi.

### **Dialektikaning asosiy tushunchalari**

Umumiy o'zaro aloqa va rivojlanishning dialektik tamoyillari: bilish, obektivlik, umumiy aloqa va rivojlanish tamoyillari.

Narsa tushunchasining tasnifi. Aloqa, o'zaro aloqa, aloqa uchun asos tushunchalarining tasnifi. O'zaro aloqaning tabiiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni. Aloqa uchun asos, munosabat va o'zaro tasir tushunchalari. Aloqaning obektivligi, muhimligi, barqarorligi, va umumiyliigi. O'zaro tasirning zarurati va ahamiyati. Tarixiylik, sababiyat va tizimlilik tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlanish tushunchasining mohiyati va mazmuni. Rivojlanishning tiplari: progress va regress, rivojlanishning volyuntaristik va emerjent talqinining o'ziga xos xususiyatlari. Taraqqiyotning fatalistik talqini. Ochiq tizimlarning rivojlanishi evolyusiyasi.

### **Dialektikaning umumiy qonunlari.**

Qonun tushunchasining tavsifi va uning turlari. Qonun - tizimning elementlari o'rtasidagi umumiy va invariant aloqa. Qonunlarning tasnifi: voqelik qonunlari, fan qonunlari, falsafa qonunlari. Qonunning amal qilish sharoitlari: bazis qonunlar va lokal qonunlar. Qonuniyatlar – qonunlarning namoyon bo'lish sharti. Qarama-qarshiliklarning qarshi harakat («kurash»)ga doir munosabati. Ziddiyatlar dialektikasi. Asosiy va ikkinchi darajali ziddiyatlar. Ayniyat va tafovut. Ziddiyatlarning turlari. Miqdor va sifat o'zgarishlari. Sifat - hodisaning uning xossalari va substrati bilan belgilanuvchi xususiyati. Xossa – predmet boshqa predmetlardan farqi yoki o'xshashligini belgilovchi asosiy mezon. Miqdor – narsa yoki jarayonni tavsiflovchi to'plamlar va kattaliklar yig'indisi. Miqdorning ikki asosiy turi – ko'payish va kamayish. Meyor – predmet borlig'ining chegarasi.

Sakrash – bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti. Inkorni inkor. Qo‘sh inkor tushunchasining mohiyati. Rivojlanish qonunlarining umumiy jihatlari.

Barqaror taraqqiyotning metodologik asoslari va tarixiy mezonlari

Barqaror taraqqiyot tushunchasining mohiyati. Sivilizatsiyaning barqaror rivojlanish prinsiplari tizimi. Insoniyatni tur sifatida saqlabqolishda barqarorlikning ahamiyati va zarurati. Barqaror rivojlanishning tizimli-ijtimoiy tabiiy mohiyati. Barqarorlik universal evolyusionizmning davomi. Rivojlanish, barqaror rivojlanish va xavfsizlik. Barqaror globallashtirish jarayoni. Davlat va barqaror taraqqiyot.

### **Tabiiy va ijtimoiy jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik dialektikasi**

Barqarorlikning o‘zgaruvchanligi va shakllanish g‘oyasi. SHakllanish g‘oyasining uch manosi. O‘zgarish – moddiy obektlarning o‘zaro aloqaga kirishish jarayoni. Barqarorlik va o‘zgaruvchanlikning nisbati va dialektikasi. Barqarorlik va beqarorlikni tushunishda - sinergetika yangi ilmiy paradigma. Nochiziqlik tushunchasining barqarorlik va beqarorlikda namoyon bo‘lishi. Sinergetikada o‘zgaruvchanlikning ikki manosi.

Ijtimoiy madaniy jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik dialektikasi. Ijtimoiy-madaniy jarayonda barqarorlik va beqarorlik muammosi. Metodologiya har qanday ijtimoiy faoliyatning usuli. Madaniyat tarixi, xalqlar o‘rtasidagi aloqalar, shaxs, jamiyat va uning institutlarini madaniy-manaviy takomillashtirishning ahamiyati. Axborot ijtimoiy madaniy jarayonlarni qayd etish vositasi. Barqarorlik va beqarorlik ijtimoiy madaniy jarayonlarning omili. Ijtimoiy beqarorlik sharoitida ijod va taraqqiyotning o‘rni.

### **Dialektikaning asosiy kategoriyalari tasnifi**

Falsafa tarixida kategoriyalarga munosabatning xilma-xilligi. YAngi davrda kategoriyalarga munosabat. Kant, Gegel, SHelling ijodida kategoriyalarning tasnifi. XX asrda kategoriyalarga munosabat. Kategoriya tushunchasi va uning tavsifi. Fan kategoriyalari, xususiy ilmiy kategoriyalar, falsafiy kategoriyalar. Falsafiy kategoriyalarining uch muhim guruhi: ontologik, substansional va munosabatdosh kategoriyalar Maxsus falsafiy fanlar kategoriyalari. Atributlar va kategoriyalarning o‘zaro aloqasi va farqi. Atributiv modelni tuzish tamoyillari. Atributiv modelning tuzilishi. Munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi va ularning tabiiy va ijtimoiy jarayonlarda amal qilish mexanizmlari.

### **Gnoseologiya va epistemologiya o‘zaro aloqasi va farqi**

Gnoseologiyaning mazmun va mohiyati. Epistemologiyaning tarifi. Gnoseologiyaning asosiy mezonlari: dunyoni bilish, o‘zini o‘zi bilish, bilmaslikdan bilish sari intilish, egallangan bilimlarning dunyo narsalari bilan mosligi

Bilish falsafasi: yondashuvlar dialogi. Optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm dunyoni bilishga nisbatan munosabat shakllari. Gnoseologik relyativizmning o‘ziga xos xususiyatlari. Bilish tabiati va tipologiyasi. Klassik fundamentalizm da bilish masalasi.

Bilimning asosiy turlari. Bilim shakllari. Noilmiy bilim shakllari. Bilishning ichki mantiqi. Hozirgi zamon bilishining xususiyatlari. Bilishga tasir qiluvchi obektiv va subektiv omillar. Bilish, tajriba va amaliyot uyg‘unligi.

### **Bilish faoliyatida ratsionallik va irratsionallik dinamikasi**

Bilimning reallik bilan mutanosibligi. . Ratsionalizm va empirizm da bilishga munosabat. Ratsionallik, uning tiplari, uning ilmiy bilishda irratsionallik bilan mutanosibligi. Ilmiy ratsionallik haqidagi yangi tasavvurlar. Ilmiy bilishda ratsionallik va irratsionallik. Bilish faoliyati strukturasi. Bilish nazariyasi tanqidi.

Bilishda subekt va obektning o'zaro aloqasi. Bilish nazariyasining tarixiyli. Bilishda subekt va obekt o'zaro aloqasi. Subekt bilish faolligi manbai. Obekt bilish faoliyati qaratilgan hodisa. Bilish faoliyat turi sifatida. Bilish nazariyasi va kibernetika. Bilish taraqqiyoti modellarining mantiqiy tahlili. Bilish reallikning inikosi sifatida. Bilishdagi qarama-qarshiliklar.

### **Ijtimoiy gumanitar bilish va bilim mutanosibligi**

Ijtimoy-gumanitar bilim muammo sifatida. Ananaviy gnoseologiyada tabiiy ilmiy bilimlarga munosabat. Ananaviy gnoseologiya abstraksiyalari. Falsafa bilim tipi sifatida. Qadriyatlarga asoslangan bilish faoliyatining afzalliklari. Tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikning o'xshash jihatlari va farqlari. Tabiatshunoslikda bilishning o'ziga xos xususiyatlari.

Matning falsafiy - metodologik tahlili ijtimoiy bilim negizi. Matn - har qanday ijtimoiy fanning birlamchi borlig'i. Ijtimoiy fanlarning kognitiv amaliyotdagi roli. Matnlarning yashirin mazmunini aniqlashning zarurligi. Falsafiy metodologiya va adabiyotshunoslik metodologiyasi. Ijtimoiy - gumanitar bilimda makon, vaqt va xronotop uyg'unligi.

### **Gnoseologiyaning rivojlanish tarixi: Qadimgi dunyo va O'rta asrlar**

Qadimgi dunyo va O'rta asrda gnoseologik qarashlar tasnifi. Eng qadimgi tasavvurlar. O'rta asr faylasuflari ijodida gnoseologiya muammolari. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida bilish masalalari. Markaziy Osiyo bilish nazariyasining xususiyatlari. Sufizm gnoseologiyasi. Sufizm bilish nazariyasida subekt va obekt masalasi. Sufizm da haqiqatni bilish muammosi. Sufiylar talimotida aql va tafakkur rolining cheklanganligi masalasi. Sufiylar talimotida hissiy va ratsional bilimlarning mutanosibligi.

Yangi davrda bilish masalalari. Yangi davrda falsafiy tafakkurning rivojlanishiga tasir ko'rsatgan ijtimoiy-madaniy omillar. Marifatparvarlar ijodida gnoseologiya masalalari. Nemis klassik falsafasida gnoseologiya masalalari. Nemis klassik gnoseologiyasining ahamiyati.

XX asr G'arbiy Evropa falsafasida gnoseologiya. XX asrning gnoseologik muammolari. Pozitivizm soxta bilimni haqiqiy bilimdan farqlash haqida. Empiriokrititsizm pozitivizmning ikkinchi tarixiy shakli. Neopozitivizm da ilmiy bilish metodologiyasi. Postpozitivizm pozitivizmning to'rtinchi shakli. Postpozitivizm tugallangan klassika. Strukturalizm va poststrukturalizm.

### **Bilish metodologiyasi: asosiy tushunchalar**

Metod, metodologiya va metodika tushunchalari. Paradigma metodologiyaning tayanch tushunchasi. Ilmiy tadqiqot dasturi va uning strukturasi. Metodlarning tasnifi: fan metodlari, fanlararo tadqiqot metodlari, empirik tadqiqot metodlari, nazariy bilish metodlar, umumiy mantiqiy metodlar. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlari. Olamni bilishning hozirgi zamon metodlari: kumatoid, abduksiya, keys stadis. Evristika va fan metodologiyasi. Asosiy evristik metodlar.



## **Yangi metodologiya: kompyuterlashtirish, tizimli yondashuv, sinergetika.**

Fanni kompyuterlashtirish muammolari va oqibatlarini. Kompyuter va bilish faoliyatida yangi tafakkur tipining shakllanishi. Epistemologiya va kognitiv fan mutanosibligi. Freymlar nazariyasining epistemologik mazmuni.

### **Bilish darajalarining amal qilishida nazariya va amaliyot birligi**

Hissiy darajadagi bilim va uning shakllari. Empirik bilim va uning shakllari. Nazariy bilim va uning shakllari. Tafakkur va uning mohiyati. Hissiy, empirik va ratsional bilish birligi. Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari. Intuitsiya va ijod. Falsafa tarixida intuitsiyaga munosabat. Intuitsiyaning bilishdagi roli. XX asr boshidagi xar xil maktablarda intuitsiya masalalari. Amaliyot bilishning mezonini. Amaliyotning vazifalari. Amaliyot falsafasi. Nazariyaga umumiy tasnif. Nazariya va amaliyot mutanosibligi. Ilmiy nazariyalar rivoji muammosi. Nazariy bilimlar taraqqiyoti dialektikasi. Nazariya taraqqiyotining asosiy sabablari (tashqi va ichki). Nazariy bilimlarning bir-biridan farqi va birligi. Bilimning haqiqiyli va amaliyot mezonini baholash. Ilmiy bilishda nazariyani asoslash muammosi.

### **Haqiqat bilish mezonini**

Haqiqat bilish nazariyasining bosh kategoriyasi. Skeptetsizm va dunyoni bilish muammosi. Falsafa tarixida haqiqat muammosi. Haqiqatning falsafiy asoslari. Epistemologiyada haqiqatning asosiy konsepsiyalari. Haqiqatning asosiy shakllari. Haqiqatning korrespondent, kogerent va pragmatik konsepsiyalari. Isbotlash va rad etishning haqiqatni bilishdagi roli. Emotsiyalar, iroda, ishonch, ideallar haqiqatni bilish vositasi. Bilish natijalarini baholashning ahamiyati. Bilishning manaviy qadriyatlarini. Verifikatsiya tamoyili. YOlq'on va yanglishish haqiqatning ziddi. Gumanitar bilishda haqiqat muammosi.

### **Tushunish sanati**

Tushunish va uning bilish bilan mutanosibligi. Mano tushunchasining tahlili. Talqin qilishning ahamiyati. Matn manosi tushunishning ahamiyati. Matnning sermanoligi. Germenevtik doira tamoyili. Ongli tushunish va ongsiz tushunish. Semiotika va semiotik belgilar tasnifi. Simvol ramzlar haqidagi talimot. Simvollarning tasnifi. Dialog tushunish vositasi. Tushuntirishning tahlili. Tushuntirishning deduktiv nomologik modeli. Oqilona tushuntirish. Teleologik yoki intensional tushuntirish. Tushuntirish va tushunishning o'zaro nisbati.

### **Interpretatsiya va konvensiyaning mutanosibligi**

Interpretatsiya bilishning tayanch asosi. Germenevtika interpretatsiya nazariyasi. Interpretatsiya va ijtimoiy bilish qadriyatlarini. Madniyat nazariyalarining tahlilida interpretatsiyaning o'rni. Interpretatsiya tabiiy fanlarning umumiy metodi. Konvensiya – bilish va kommunikatsiyalarning umumiy metodi. Konvensiyaning ijtimoiy tabiati. Ijtimoiy gumanitar fanlarda konvensiyaning amal qilish mexanizmlari.

### **Til va kommunikatsiyalar mutanosibligi**

Til falsafasi. Nutq aktlarini nazariyasi. Kommunikatsiya shakllari evolyusiyasi. Mass mediya davrida kommunikatsiya. Til va obraz mutanosibligi. O'yin tilni tushunish vositasi. Til va harakat uyg'unligini taminlashning ahamiyati.

Til funksiyalari: madaniyatni yaratish, ijtimoiy integrativ, ijtimoliylashuv. Mumtoz kommunikativ tizimda til belgilar sifatida. Zamonaviy mass - media audio-vizual belgilar tizimi sifatida. Televideniadagi mediakratik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari. Kommunikativ harakat nazariyalari.

### **Dialog va dialogistika falsafasi**

“Dialog”, “dialogistika” tushunchalarining mazmuni va tarixiy-falsafiy ildizlari. Dialogning germeneytik va sinergetik tahlili. Dialogning ontologik, gnoseologik va epistemologik qarashlar rivojiga tasiri. Dialog yaxlitligi va uning mantiqiy talqini. Dialogning falsafiy bilimlar rivojiga tasiri. Ilmiy bilishda dialogni namoyon bo'lish xususiyatlari. Ilmiy bilish jaryonida dialogni namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. Dialogning madaniy-marifiy jihatlari. Ijtimoiy dialogda so'z va fikr erkinligining namoyon bo'lishi. SHarq va G'arb falsafasida dialog tushunchasining ilmiy-nazariy hamda ijtimoiy-madaniy asoslari xususidagi konseptual yondashuvlarning qiyosiy tahlili. O'zbekiston talim tizimini rivojlantirishda dialogning o'rni.

### **Ilmiy bilishda axborotlashuvning roli**

Axborot tushunchasining tahlili. Bilimning informativligi. Informativlik mazmunining asosiy jihatlari. Informatizatsiya tushunchasining tahlili. Informatika axborot texnologiyasining negizi. Informatsiya, informatsion jamiyat, informatsion texnologiyalar tushunchasi. Ijtimoiy informatika. Axborot inqilobi. Axborot texnologiyasi. Nanotexnologiyalar va biotexnologiyalarning ijtimoiy makondagi roli. Informatsion vaziyatning bilishdagi ahamiyati. Ijtimoiy axboro, ilmiy axborot va axborot texnikasi tushunchalarining tasnifi. Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi.

### **Virtual reallik texnologiyalarining falsafiy jihatlari**

Virtual reallik tushunchasining asosiy xossalari va funksiyalari. Virtual reallikning nazariy asosi: turli o'yinlar, konstruksiyalar va fantastik badiiy asarlar. Virtual dunyolar haqidagi tasavvurlar: mif yoki reallik. Virtual dunyo real dunyoni ifodalovchi asosiy vosita. Kompyuterdagi virtual reallik. Virtual reallik texnologiyalarining yaratilish bosqichlari. Virtual reallikda jarayonlarni boshqarish imkoniyati. Virtual dunyoning ijobiy va salbiy jihatlari. Modellashtirish virtual reallikning funksiyalaridan biri sifatida. Virtual reallik va suniy reallik. Virtual reallikdagi irratsionallik. Madaniyatning virtualligi. Virtual reallikning to'rtinchi o'lchovi. Haqiqiy borliq va virtual reallikning nomutanosibliigi. Virtual reallik va shaxs. Virtual reallik va omma harakati. Axborot va kompyuter texnikasining ijobiy va salbiy jihatlari. Kompyuterdagi virtual reallik. Global internet tarmog'i global virtual muloqot vositasi.

### **Dunyoning ilmiy manzarasi**

Dunyoning ilmiy manzarasi xususiyatlari va asosiy elementlari. Dunyoning mifologik manzarasi. Dunyoning diniy manzarasi. Dunyoning buddaviylik diniy manzarasi. Xristian ilohiyotida dunyoning manzarasi. Islom dinida dunyo manzarasi. Dunyoning falsafiy manzarasi. Dunyoning ilmiy manzarasi. Dunyoning klassik va noklassik manzarasi. Dunyoning hozirgi zamon ilmiy manzarasi. Dunyoning diniy, falsafiy va ilmiy manzarasining o'zaro nisbati. Ijtimoiy bilishda dunyoning manzarasi. Dunyoning lingvistik va badiiy manzarasi.

## **Ilmiy tafakkur uslubi evolyusiyasi**

Ilmiy tafakkur uslubi tushunchasining tahlili. Tafakkur uslubi matritsasining ahamiyati. Kompyuter tafakkuri va bilish faoliyati yangicha tipining shakllanishi. Klipli tafakkur tushunchasi va uning ijtimoiy madaniy jarayonlardagi o'rni. Klipli tafakkurning modellari. Tafakkur uslubi inersiyasi. Tafakkur inersiyasining gnoseologik jihatlari. Fikrning cheklanganligi bilish jarayoni bosqichi sifatida. Tafakkur uslubi inersiyasi tafakkurning xossasi sifatida. Tafakkur uslubi inersiyasi-normal faoliyatdagi tafakkurning tabiiy holati sifatida.

### **Suniy intellekt bilim mahsuli.**

Suniy intellekt tushunchasi va unig tahlili. Suniy ong rivoji haqidagi talimotlar evolyusiyasi. N.Viner suniy intellekt haqida. Suniy intellekt masalasida epistemologik va metodologik yondashuvlar. A.Tyuring testi. L.Memfordning megamashinalar xaqidagi talimoti. A.Azimov robototexnika xaqida. Robotlar va suniy intellekt. Suniy intellektning potensial imkoniyatlari. Inson tafakkuri va suniy intellekt munosabati. S.Djobbs suniy intellektni yaratish xaqida. 6-avlod kompyuterlar avlodi. Superkompyuterlar. Zamonaviy robototexnika taraqqiyoti masalasi. Suniy intellektni yaratishning ijobiy va salbiy jihatlari.

### **Yangi bilimlarni yaratish dialektikasi**

Sivilizatsiya tarixida fanning shakllanish asoslari. Dastlabki fan bosqichida inson faoliyati. Haqiqiy fan imkoniyatlari. Haqiqiy fanga o'tishdagi ikki omil. Texnogen madaniyatda fan. Ananaviy va texnogen sivilizatsiyaning farqlari. Fan asoslari. Fan ideallari va meyorlarining o'zaro mutanosibligi va farqi. Fanning bilish ideallari. Obektiv reallikni bilishdan, uni o'zgartirishga o'tish imkoniyati. Ilmiy progress va anana. Ilmiy progress va bilish jarayonining regulativ tamoyillari. Ilmiy progress va ilmiy bilish o'sishining noxizizqli karakteri. Hozirgi zamon fanida yangi bilimlarni yaratish yo'llari.

## **FALSAFA TARIXI**

Falsafiy tafukkurning vujudga kelishi, uning o'ziga xosligi. Falsafaning predmeti va asosiy muammolarining shakllanishi, ularning falsafiy fikr rivoji davomida o'zgarib borishi. Falsafa tarixini o'rganish falsafaning ijtimoiy ong shakllari o'rtasidagi o'rnini aniqlash va uning jamiyat moddiy hayotining ijtimoiy amaliyotga bog'liqligi nisbiy mustaiqligi, shuningdek, o'zining ichki taraqqiyotida ichki mantiqqa ega ekanligi.

Falsafiy fikrning rivoji jarayonida turli xil ta'limotlar, oqimlar, kontseptsiyalarning vujudga kelishi, ularda o'z davri xususiyatlarining aks etishi hamda barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan o'zak falsafiy masalalarning mavjudligi. Falsafiy fikrlar rivojidagi vorisiylik. Falsafiy qadriyatlarining milliy va umumbashariy jihatlari. Falsafiy-tarixiy jarayonning yaxlitligi va tizimliliigi.

Falsafa tarixini o'rganishga turli xil yondashishlar. Falsafiy fikr rivojini davriylashtirish masalasi. Falsafiy ta'limotlarni qiyosiy tahlil asosida o'rganish milliy g'oyaning falsafiy-tarixiy asoslarini chuqur anglash vositasi ekanligi.

### **Qadimgi Sharqda falsafaning vujudga kelishi**

Qadimgi Misr va Bobilda dunyo haqida dastlabki ilmiy tasavvurlar va ilk falsafaning paydo bo'lishi Misr va Bobil ko'hna sivilizatsiyalarining paydo bo'lishi, ulardagi ma'naviy ravnaq. Ilk dunyoqarashning shakllanishi, uning

sotsioantropomorfik va sinkretik tabiati, unda badiiy, mifologik, diniy va ilmiy tasavurlarning o'zaro munosabati. Old falsafaning sotsioantropomorfik dunyoqarash, ilmiy bilim kurtaklari va u bilan bog'liq mantiqiy tafakkurning zidiyatli birligi sifatida vujudga kelishi.

Dunyoviy ilm kurtaklarining vujudga kelishi, uning borliq va inson to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishidagi ahamiyati. "Arfist qo'shig'i"ning yaratilishi, unda hayot va oxirat masalalarining qo'yilishi. Qadimgi Misr mifologiyasi, undagi old falsafa elementlari.

Shumer mifologiyasi, uning dunyoqarash mazmuni. Akkad-Bobil mifologiyasidagi old falsafa elementlari. Gil'gamesh eposi, unda hayot va o'lim masalasining muhokama etilishi.

Qadimgi Misr va Bobildagi ilmiy bilim kurtaklari va mifologiyaning Qadimgi grek falsafasining shakllanishiga ta'siri.

Qadimgi Hindistonda falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi.

Qadimgi hind jamiyati iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining hususiyatlari, ularning Hindistonda old falsafa va falsafaning shakllanishiga ta'siri. Hind falsafasining G'arb falsafasidan farqli jihatlari.

Vedalar, ularda badiiy-mifologik dunyoqarashning ifodalanishi. Vedalarga munosabat: astika va nastika. Vedalar eng qadimgi ariylik ifodasidir. Upanishadlardagi old falsafa, uning asosiy tushunchalari: braxman, atman, karma, sansara moksha va boshqalar. Upanishadlar veda dunyoqarashining tanqidiy jihatidan idrok etilishidir. Tug'ilish va o'limning adabiy "almashinuvi" g'oyasi upanishadlarning markaziy mavzui sifatida. Hind falsafasida Reinkarnatsiya to'g'risidagi ta'limot va uning G'arbdagi talqinlari. Nitsshening Hind falsafasi to'g'risidagi fikrlari. Braxmanizmning shakllanishi va mohiyati.

Hind tafakkurida epik davr. Maxobxarot, uning falsafiy-mifologik mazmuni. Buddizm diniy-falsafiy ta'limot sifatida. Budda ta'limotining "to'rtta yaxshi haqiqat" deb nomlangan asosiy qoidalari. Buddizmda "o'zlik" masalasi. Jaynizm, undagi atomistik qarashlar.

Qadimgi hind falsafiy maktablarining vujudga kelishi. Chorvoq falsafiy ta'limoti. Sankhya, undagi prakriti (materiya) va purusha (ruh) dualizmi. Yoga va yoginlar. "Bxagavadgita"dagi yogin obrazi. Haqiqiy tushunish, xohish va norozilik (nafrat) bilan malolikka uchramagan hatti-harakatlar uchun asos hisoblanadi g'oyasi "Bxagavadgita"ning fundamental g'oyasi ekanligi. Vaysheshika, unda borliq va noborliq masalalarining qo'yilishi. Nyayada bilish masalalari. Mimansa va vedanta ta'limotlari. Qadimgi hind falsafasining falsafiy fikr rivojida tutgan o'rni.

### **Qadimgi Xitoyda falsafaning vujudga kelishi**

Qadimgi Xitoyda diniy-mifologik qarashlar, old falsafa shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari. "In'yan" maktabi, undagi naturfalsafiy g'oyalar.

Qadimgi Xitoy mumtoz falsafasi. Konfutsiy ta'limoti, unda antropologik, ijtimoiy va axloqiy masalalarning ustuvorligi, uning bugungi kunda yoshlarni umuminsoniy ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati. Konfutsiy falsafasida inson, insonparvarlik va rahimdillik g'oyalari. Konfutsiy falsafasida "yaxshi hayot" tushunchasi. Moistlar ta'limoti. Ismlar maktabi (min szya). Xitoy

amaliy falsafasining sententsiyalar, hikmatli gaplar va qisqacha tarixlar shaklida ifodalanish uslubi. Daosizm, unda borliq va noborliq masalalarining muhokama etilishi. Daoning borliqning mavjudligi, barcha mavjud narsalarning negizi hisoblanadigan mahum boshlang'ich qudrat kabi tag'dim etilishi uning izohi sifatida. Legizmda jamiyat, boshqaruv, qonunchilik masalalarining qo'yilishi va hal etilishi.

### **Qadimgi Yunonistonda falsafiy fikrlar.**

#### **Ilk falsafa va naturfalsafaning shakllanishi**

Ellin madaniyati, uning diniy-mifologik qarashlarda ifodalanishi. Gomer mifologiyasi va kosmologiyasi. "Iliada" va "Odisseya" eposlari sotsioantropomorfik dunyoqarash namunalari sifatida. Gesiod, uning besh avlod kontseptsiyasi. Ordeizm, uning falsafiy fikrlarning vujudga kelishdagi roli. Ferekid ijodi. Orfika, unga oid adabiyotlar. "Etti donishmand", uning falsafiy qarashini qaror topishiga ta'siri.

Qadimgi yunonistonda polislar(shaxar-davlatlar)ning vujudga kelishi, ularning falsafiy va xususiy-ilmiy bilimlar paydo bo'lishidagi roli. Ilk grek falsafasining naturfalsafiy ko'rinishiga egaligi va kosmotsentrik mohiyati. Substantsiya g'oyasining ilgari surilishi.

#### **Ioniya falsafasi.**

##### **Milet maktabi falsafiy ta'limoti**

Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi Ioniya tumanida yuzaga kelgan barcha falsafiy ta'limotlarni Ioniya falsafasi deb atalishi. Bu ta'limot dastlabki falsafiy moddiyunchilik ta'limoti sifatida VII va VI asrlar o'rtasida Melet shahrida yuzaga kelgan. Ioniya falsafasining yirik namoyondalari F.Fales, Anaksimandr, Anaksimenes, Ksenofan, Pifagor, Anaksogor, Fales va Anaksimennlarning o'sha davrdagi mavjud tuzumning progressiv tabaqa namoyondalari sifatida g'ayriilmiy qarashlarga qarshi kurash olib borganligi.

Fales (er.avv. 625-547 y.) qadimgi yunon olimi va faylasufi sifatida. Falesning tabiatning, jism va hodisalarning suvdan paydo bo'lganligi g'oyasi. Fales birinchi bo'lib, olamning moddiy birligini va bu moddiylik birlik doimo o'zgarishda ekanligini e'tirof etganligi. Falesning mifologik dunyoqarashni falsafiy dunyoqarashga aylantirganligining xususiyatlari. Falesning osmon jismlari harakati haqidagi falsafiy qarashlari. Anaksimandr (er.avv. 610-546 y.)ning apeyronni borliq substantsiyasi sifatida asoslashi. Uning kosmogoniyasi va esxatologiyasi. Anaksimandr hayotning kelib chiqishi va inson haqida. Anaksimandrning olamning cheksizligi o'zaro harakatlar natijasi ekanligi haqidagi qarashlar. Uning dunyoviy borliq abadiy o'zgarishda bo'ladi g'oyasining mazmun-mohiyati. Anaksimenes (er.avv. 588-525 y.) dunyoqarashi. Havo-borliq substantsiyasi. Anaksimennning kosmogoniyasi va kosmologiyasi hamda jon haqidagi qarashlari. Anaksimennning harakatning abadiyligi haqidagi fikrlari. Anaksimennning xudolarni mutlaqo inkor etmasligi va uning boshva antik yunon faylasuflari singari materiyaning ilohiylashgani to'g'risidagi fikrlari. Anaksimenes pantiizmi.

Geraklit (er.avv. 544-480 y.) dunyoqarashi."Tabiat haqida" asari, unda borliq masalasining qo'yilishi. Uning Qadimgi Yunonistonda falsafani rivojlantirishda tutgan tarixiy o'rni va ahamiyati shundaki, u o'zidan avval o'tgan

faylasuflar Fales, Anaksimandr va Anaksimenlardan farqli ularoq dialektika masalalarini ishlab chiqqan edi. Geraklitning olovni olam substaktsiyasi sifatida asoslashi. Logos tushunchasining talqini. Tabiiy zaruriyat g'oyasining asoslanishi. Kosmogoniyasi, borliqning umumiy oquvchanligi, o'zgaruvchanligi haqidagi fikr-mulohazalari. Geraklit dialektikasi. Inson ruhiyati va bilish to'g'risidagi ta'limoti. Ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari.

Pifagor(er.av 580-500 yillar)ning, hayoti va ijodiy faoliyati. Pifagorchilar ittifoqining yuzaga kelishi. Pifagorchilarning turmush tarzi. Pifagorning sonni dunyo tuzilmasi asosi sifatida talqin qilishi. Ilk pifagorchilarning diniy-axloqiy qarashlari. Pifagorchilarning tibbiy ta'limoti. Alkemeon dunyoqarashi. Qarama-qarshiliklar haqida. Filolay (er.avv V asr-IV asr ikkinchi yarim) va Arxit (er.av. IV asr)-pifagorchilar namoyondalari.

### **Eley falsafiy maktabi**

Ksenofan ( er.avv. 565-473 yillar). Uning tomonidan ioniya natur falsafasining o'zgartirilishi. Ksenofan panteizmi. Aptropomorfizm, politeistik mifologiya va dinni tanqid qilishi. Ksenofan ta'limotidagi ziddiyatlar.

Parmenid (er.avv. 540-515 y)- eley falsafaiy maktabining yirik vakili. «Tabiat haqida» asari, unda «Shubhali yo'lning» «Haqiqat yo'liga» qarama-qarshi qo'yilishi. Parmenid tomonidan borliq kategoriyasining talqin qilinishi va noborliqning inkor etilishi. Parmenidning bilish nazariyasi. Zenonning borliq, fazo,vaqt va harakat to'g'risidagi qarashlari. Zenon aporiyalari. «Zenon-dialektika ixtirochisi» (Aristotel).

Empedokl (er.av. 490-430 yillar) borliqning ildizlari to'g'risida. Uning kosmologiyasi. Muhabbat va yovuzlikning tabiiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuchlar ekanligi to'g'risida. Organik dunyodagi maqsadga muvofiqlikni tushuntirishi. Jon va bilish to'g'risidagi qarashlari.

Anaksagor (500-428 er.av.) ning hayoti va asarlari. Uning materiya haqidagi ta'limoti. «Urug'lar» (gomomeriyalar), ularning bo'linishi, sifatga egaligi va jismlarning yuzaga kelishida asos bo'lishi to'g'risidagi fikrlari. Birlik va ko'plik, qismning butunga o'xshashligi masalasi. «Barchada barcha narsalar bor» tezisi. Nus(aql)ning dunyoni harakatlantiruvchi kuch sifatida talqin etilishi. Materiyaning yo'q bo'lib ketmasligi, Hayotning abadiyligi to'g'risida. Jon haqidagi mulohazalari. Anaksagorning gnoseologik ta'limoti.

Sofistika- er.avv.V asrning ikkinchi yarmi- IV asrning boshlarida yuzaga kelgan ratsional oqim. Quldorlik demokratiyasining yutuqlari va fuqorolarning gumanitar ta'limga ehtiyojlarining oshishi. Pullik ta'limning vujudga kelishi. «Sofist» degan atamaning paydo bo'lishi. Sofistlar katta guruhi. Protagor (er.avv.480-410y.) dunyoqarashi. Sofistlar kichik guruhining qarashlari Zamondoshlari tomonidan sofistkaga berilgan baho.

Sokrat (er.avv.470 469-399 y)ning hayoti va ijodi. Sokrat qarashlari haqida manbalar, ma'lumotlar. Sokrat falsafasining antropologik mohiyati. Naturfalsafani inkor etishi va falsafani hayot tarzi ma'nosida tushunishi. Sokratning bilish va bilim to'g'risidagi qarashlari. Haqiqatga erishish to'g'risidagi fikrlari. Dialektika - Sokrat falsafasining buyuk yutug'i. Mayevtika metodining mohiyati. Sokratning axloq haqidagi doktrinasi.

Sokratchilar maktablari: Megar maktabi, Elido-eritrik maktabi, Kiniklar maktabi, Kiren maktabi.

### **Mumtoz yunon falsafasi.**

#### **Levkipp-Demokritning atomistik ta'limoti**

Levkipp (er.av. 500-440 yillar) - atomistik ta'limotning asoschisi. Levkipp ta'limotida Ioniya falsafasi va Parmenidning borliq haqidagi ta'limotlarining rivojlantirilishi. Borliq va noborliq, atomlar va bo'shliq tushunchalari.

Demokrit (er.av. 460-370 yillar), uning hayoti, ijodi va Sharq mamlakatlarga qilgan sayohati. Demokritning asosiy asarlari. Uning tomonidan atomistik printsipning rivojlantirilishi. Atomlarning xossalari haqida. Atom va bo'shliqning mavjudligini isbotlashi. Atomizm - tabiat hodisalarini universal tarzda tushuntirish turi. Materiya va harakatning abadiyligi to'g'risidagi demokrit mulohazalari. Demokritning bilish haqidagi fikr-mulohazalari. Axloqiy va siyosiy qarashlari.

Platon biografiyasining asosiy qirralari. Uning asarlari. Platon falsafasining nazariy manbalari. G'oyalar haqidagi ta'limoti. "G'oyalar dunyosi" strukturasi. G'oyalarning o'zaro va jismlar bilan aloqadorligi masalasi. Kosmogoniya va kosmologiyasi. Platon dialektikasi. Bilish nazariyasi. Mantiqa oid qarashlari. Inson va jamiyat to'g'risidagi qarashlari. Jon va tana munosabati haqida. Davlatning strukturasi va shakllari masalalarini tadqiq etishi. Axloqiy va yestetik qarashlari. Platon ta'limotining O'rta asr Sharq falsafasiga ta'siri.

Aristotel (er.avv. 384-322 y)ning hayoti va asarlari. Platon Akademiyasidagi davri. Aristotel asos solgan Likey maktabi va undagi ilmiy-falsafiy faoliyati. Platonning «g'oyalar dunyosi» ta'limotiga qarshi chiqishi va unga to'rta e'tirozi. Substantsiya, materiya va shakl to'g'risidagi qarashlari. Aristotel to'rtta boshlang'ich asos (sabab) to'g'risida. Teologik qarashlari. Dastlabki harakatlantiruvchi kuch tushunchasi. Fazo, vaqt va harakat to'g'risidagi mulohazalari. Aristotel olamning tuzilish haqida. Atomizmga munosabati. Geotsentrik nazariyasining mohiyati. Aristotel borliqdagi abadiyat, zaruriyat va tasodif to'g'risida. Ruhiyat va bilish to'g'risidagi qarashlari. Ilmiy bilishning xususiyatlari to'g'risida. Aristotel mantig'i va uning falsafiy tizimidagi o'rni. Fanlar tasnifi: «Birinchi falsafa» va boshqa nazariy fanlar, amaliy va ijodiy fanlar munosabati. Aristotelning axloqiy fazilatlar va komil inson haqidagi qarashlari, ularning hozirgi paytdagi ahamiyati. Jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti, uning qadr-qimmati. Aristotelning estetik qarashlari. Aristotel merosining falsafiy fikr rivojiga ta'siri. Aristotel va Sharq peripatetizmi.

#### **Ellin-Rumo davrida antik falsafa.**

Ellinizm davrida O'rta Yer dengizi xalqlari hayotida ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar. Aleksandriya, Pergem va boshqa yangi madaniyat markazlarining paydo bo'lishi. Sharqiy O'rta Yer dengizi xalqlarining ellinizm davrida ma'naviy madaniyati rivojida yangi holatlarning yuzaga kelishi: diniy sinkretizm, individuallik, kosmopolitizm, ijtimoiy manfaatlarining so'nishi, pessimizm.

Epikur (341-270y) hayoti va asarlari. Uning Afinada falsafiy maktabni tashkil etishi («Epikur bog'i»). Epikur falsafaning vazifasi va uning asosiy qismlari haqida. Epikur tomonidan atomistik ta'limotning rivojlantirilishi. Zaruriyat va

tasodifiyat, sababiyat va erkinlik muammosining qo'yilishi. Epikurning bilish nazariyasi. Individualizm-Epikur etikasining asosi Lukretsiy Kar, uning atomizmi, borliq to'g'risidagi qarashlari. Epikur va epikurchilarning ijtimoiy qarashlari.

Skeptitsizmning shakllanishi va asosiy g'oyalari. Pirron-skeptitsizmning asoschisi. Uning baxt tushunchasini talqin qilishi va baxt-saodatga erishish yo'llarini aniqlashi. Timon-pirronizm targ'ibotchisi, uning ishonchli bilim asoslari to'g'risidagi qarashlari.

Skeptitsizmning "Yangi Akademiya"da rivojlanishi. Enesidem dunyoqarashi. Arkesilay va Karneadlarning bilish masalalarini talqin etishi. Sekst Empirikning skeptitsizmni rivojlantirishi.

Greksk stoitsizmning shakllanishi, unda ontologiya va kosmologiya masalalarining muhokama etilishi. Greksk stoiklarining bilish nazariyasi va mantig'i. Taqdir, yovuzlik va erkinlik masalalarining qo'yilishi. Axloq masalalarining tadqiq etilishi.

Rim stoitsizmining o'ziga xosligi. Panetsiy ijodi. Poseydon dunyoqarashi. Seneka ijodi. Rim eklektizmi. Sitseron, Mark Avreliy qarashlari.

Neoplatonizmning shakllanishi, asosiy maktablari. Plotin(203-270 y)ning xayoti va faoliyati, asarlari. Borliq haqidagi ta'limoti. Birlik va ko'plik dialektikasi. Plotin olamning kelib chiqishi haqida Bilish to'g'risidagi qarashlari. Jon va tana, ularning munosabati to'g'risidagi mulohazalari. Porfiriy, uning mantiqiy qarashlari.

Yamvlix (280-330 y) ijodi. Prokl Afina maktabining asoschisi va neoplatonizmning sistemalashtiruvchisi. Dunyoviy jarayonning triadalik ritmi haqidagi ta'limoti. Yustinian tomonidan Afina maktabining yopilishi, formal ravishda Antik falsafaning tugallanishi.

### **O'rta asr G'arb falsafasining predmeti, ijtimoiy-g'oyaviy manbalari va xususiyatlari**

Xristian dinining aqidalari, ularning O'rta asr G'arb falsafaning shakllanishiga ta'siri. O'rta asr G'arb falsafasining teotsentrik mohiyati, uning rivojining asosiy bosqichlari.

O'rta asr xristianligining apologetika va patristika davri.

Avgustin ta'limoti

Apologetikaning ko'zga ko'ringan vakillari Yustin Tatian, Tertullian, Aleksandriya maktabining vakillari Kliment, Origenlarning xristianlikni himoya qilishdagi harakatlari.

Patristika davrining xususiyatlari, patristikaning yirik vakili Avreliy Avgustinning merosi. Ontologik, gneseologik ta'limotlari, tarix falsafasi.

Sxolastika. Realizm va nominalizm o'rtasidagi baxs.

Realizmning keskin o'ta va mo'tadil oqimlari.

Anselm Kenterberiyскийning sxolastik realizmi. Xudo kontseptsiyasi.

Рьер Abelyar va uning cherkov va ortodoks sxolastikaga qarshi kurashi.

Nominalizm individual shaxsga e'tibor, inson xatti-harakati va iroda erkinligi. Aqlning e'tiqodga nisbatan ustunligi.

XIII asrda Yevropada sxolastika va falsafiy fikrlar rivoji



Foma Akvinskiy tomonidan Aristotel ta'limotining xristian ilohiyotchiligi ruhida talqin qilinishining tanqidi.

XIII asrda Yevropada ilm-ma'rifatning rivoji. Universitetlarning tashkil etilishi. Sxolastikaning inqirozi. Nominalizmning rivoji. R.Bekon, D.Skott va U.Okkan qarashlari.

### **Uyg'onish davri falsafasining xususiyatlari.**

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrgacha Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy –ma'naviy o'zgarishlar. Uyg'onish davri falsafasining antropotsentrik va gumanistik mohiyati hamda asosiy yo'nalishlari.

Kuzanskiy tabiiy-ilmiy qarashlaridagi geliotsentrik g'oyalarning mohiyati. Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi. Bilish haqidagi ta'limoti. Mantiqiy qiyoslash va tafovutlash to'g'risidagi fikrlari.

Florentsiyadagi neoplatoniklar falsafasi.

G'arb uyg'onish davrida san'ati, unda insonning ulug'lanishi. Leonardo da Vinchi ijodi, uning bugungi kunda yoshlarda estetik didni yuksaltirishdagi ahamiyat

### **Uyg'onish davri kosmologiyasi**

N. Kopernik geliotsentrik ta'limotining mohiyati va dunyoqarash ahamiyati

N. Kopernikning geliotsentrik ta'limotning asosiy ilmiy tamoyillari. Hissiy va aqliy bilishning birligi masalasi. Kopernik ta'limotining cherkov tomonidan ta'qib qilinishi sabablari.

J. Brunoning hayoti va ilmiy merosi. Bruno dunyoqarashida koinotning cheksizligi va olamning sanoqsizligi to'g'risidagi g'oyalar. Materiya va shakl munosabatlari haqida.

Galileyning hayoti va ilmiy merosi. Galileyning ontologik qarashlarida dialektik g'oyalar. Galiley-ilmiy bilish erkinligining tarafdori.

### **Uyg'onish davrida sotsiologik ta'limotlarning rivojlanishi**

Uyg'onish davrining sotsiologik ta'limotlari. Insonning tabiiy huquqlari haqidagi g'oyalarning vujudga kelishi. Nikkolo Makiavelli-yagona markazlashgan dunyoviy hokimiyat tarafdori.

T. Morning jamiyat haqidagi g'oyalari. Yangi jamiyatda axloqiylik masalasining qo'yilishi.

T. Kampanellaning «Quyosh shahri» asari. Ilk utopik sotsializm g'oyalarining sotsiologik ta'limotlar rivojida tutgan o'rni.

## **V) YA'NGI DAVR FALSAFASI**

### **XVII asr ilmiy inqilobi va uning falsafiy fikr rivojiga ta'siri**

Yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasining shakllanish shart-sharoitlari. Yirik sanoat ishlab chiqarishining vujudga kelishi, uning fan taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri. Klassik falsafaning shakllanishi. Falsafada ilmiy bilish metodologiyasi masalalarining tadqiq etilishi. F.Bekon, R.Dekart, T.Gobss, B.Spinoza, J.Lokk, Leybnits ilmiy-falsafiy qarashlari.

## **XVIII ASR INGLIZ FALSAFASI.**

### **JON TOLANDNING HURFIKRLILIK G'OYALARI**

XVII asrning ikkinchi yarmi XVIII asr birinchi yarmida Angliyada ijtimoiy-siyosiy holat. XVIII asrda Angliyada ma'rifatparvarlik falsafasining rivoji. Jon

Toland falsafasi. Tolandning panteistik qarashlari. Toland ijodida xurfig'orlik g'oyalari.

### **ANGLIYA DA IJTIMOIIY-AXLOQIIY TA'LLIMOTLAR RIVOJI**

Angliyada axloqiy ta'limotlarning o'ziga xos rivoji. A.Sheftsberi va Xatchesonning axloqiy qarashlari. B.Mandevilning axloqiy ta'limoti.

David Gartling falsafiy qarashlari rivoji. Antoni Kollinzning falsafiy qarashlari. Jozef Pristlining falsafiy fikrlari rivoji.

### **JORJ BERKLI FALSAFASI**

XVII-XVIII asr ingliz ziyolilarining falsafa va dinga munosabati. Jorj Berklining falsafiy ta'limotining asosiy tamoyillari. Uning materiya va ob'ektiv olam haqidagi ta'limoti. J.Berklining dinga munosabati. J.Berklining falsafa tarixidagi o'rni va roli.

### **DEVID YUM FALSAFIY TA'LLIMOTI**

David Yum falsafasining ijtimoiy-siyosiy ildizi. D.Yumning ontologik qarashlari. D.Yumning gnoseologik qarashlari. Uning «Insonni bilish haqidagi tadqiqoti» asarida falsafiy masalalarning tahlili. O'xshashlik assotsiatsiyalari. Makon va zamon assotsiatsiyalari. Sababiyat assotsiatsiyalari.

### **XVIII ASR FRANTSUZ MA'RIFATCHILIGI**

XVIII asr frantsuz ma'rifatchiligining o'ziga hos xususiyatlari va rivoji. Ularning dinga munosabatlari. Vol'terning falsafiy ta'limoti. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.

Sharl Monteskyening ma'rifatparvar g'oyalarining shakllanishi. Sh.Monteskyening dinga munosabati. Monteskyening jamiyatga nisbatan geografik determinizmi.

J.Russo - Frantsiyaning siyosiy mafkurachisi. Russoning «Insonlar o'rtasida tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari to'g'risida mulohazalar» asarida falsafiy va ijtimoiy muammolar. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. J.J.Russo davlatning kelib chiqishi haqida. Uning dinga munosabati. J.J.Russoning pedagogik qarashlari.

### **XVIII ASR FRANTSUZ QOMUSSHUNOSLARINING FALSAFIY QARASHLARI**

XVIII asr Frantsuz falsafasining falsafa tarixidagi o'rni. Lametrining tabiiy-ilmiy qarashlari. Uning falsafiy qarashlari. Borliq haqidagi ta'limoti. Lametrining gnoseologik qarashlari. Uning axloq haqidagi fikrlari. Lametrining ijtimoiy qarashlari.

Etyen Kondilyakning hayoti va faoliyati. E.Kondilyak bilish nazariyasi va sistemalar muammosiga munosabati. E.Kondilyakning ijtimoiy-falsafiy, tarix va siyosiy qarashlari.

Deni Didroning hayoti, ijodi va asarlari. Didroning falsafiy qarashlari. Didroning bilish nazariyasi. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Didroning dinga bo'lgan munosabati.

P.Golbaxning xayoti, ijodi va asarlari. Uning tabiatshunoslikka munosabati. Materiya va harakat birligi haqida. Golbaxning bilish nazariyasi. Uning fatalistik determinizmi. Dinga bo'lgan munosabati. Ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Konstitutsion monarxiya Golbaxning siyosiy ideali ekanligi.

Gelʼvetsiy hayoti. Ijodi va asarlari. Gelʼvetsiy falsafasida materiya va harakat. Gelʼvetsiyning bilish nazariyasi. Gelʼvetsiyning jamiyat haqidagi qarashlari. Gelʼvetsiyning dinga boʻlgan munosabati.

### **XVIII ASR OXIRI VA XIX ASR BOSHIDA NEMIS FALSAFASI.**

#### **IMMANUIL KANT**

Nemis falsafasi rivojining bosqichlari. XVIII asr ikkinchi yarmi XIX asrning birinchi yarmida yuzaga kelgan nemis falsafasining ijtimoiy-siyosiy va gʻoyaviy ildizlari. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida nemis falsafasi rivojiga tabiiy-ilmiy va diniy taʼlimotlarning taʼsiri. Kantning hayoti, ijodi va asarlari. Kant dunyoqarashining evolyutsiyasi. Kantning tanqidiy davrgacha boʻlgan ijodi. Uning tabiiy-ilmiy qarashlari. Kant «Sof aqlning tanqidi» asarining tizimi va mazmuni. Kant nazariy va amaliy aqlni tanqidi. Uning estetik nazariyasi. Kantning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Kant taʼlimotining keyingi davrda Gʻarbiy Yevropa falsafasidagi taqdiri.

#### **IOGANN FIXTE FALSAFASI**

Fixtening hayoti, ijodi va asarlari. Fixte falsafiy qarashlarining shakllanishida Kantning taʼsiri. Uning subʼektiv idealizmi. Fixte dialektikasi. Fixtening ijtimoiy qarashlari. Uning axloqiy qarashlari.

#### **IOSIF ShELLINGNING ILOHIYOT FALSAFASI**

Shelling hayoti, ijodi va asarlari. Shelling falsafasining shakllanishida Kantning taʼsiri. Shellingning tabiat falsafasi.

Uning dialektikasi. Shelling bilish nazariyasi. Ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Shelling «Sanʼat falsafasining mohiyati» haqida. Shelling falsafasida «Ilohiy bashorat» taʼlimoti.

#### **VILʼGELʼM GEGELNING FALSAFIY TIZIMI**

Gegel falsafiy ijodining asosiy davrlari va bosqichlari. Gegelning falsafiy sistemasi va uslubi. Gegel tabiat falsafasining asosiy xususiyatlari haqida. Gegelning mutloq ruh haqidagi taʼlimoti. Gegelning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Gegel din, huquq va sanʼat falsafasi haqida. Gegel falsafa tarixchisi sifatida.

#### **LYuDVIG FEYERBAXNING ANTROPOLOGIK FALSAFASI**

Feyerbaxning hayoti, ijodi va asarlari. Feyerbaxning antropologik falsafasi. Uning gnoseologik taʼlimoti. Feyerbaxning Gegel falsafasini tanqidi. Ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Feyerbax yangi muhabbat dini haqida. Uning axloqiy qarashlari.

#### **G) ENG YANGI DAVR GʻARB FALSAFASI**

XIX - XX asr Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy hayot, fan-texnika taraqqiyoti va maʼnaviy madaniyatdagi oʻzgarishlar, ularning falsafada aks etishi. XIX asrning ikkinchi yarmida noklassik falsafaning shakllanishi. Uning xususiyatlari va rivojlanish yoʻnalishlari.

Pozitivizmning shakllanishi va asosiy xususiyatlari. O.Kontning pozitivistik falsafasi. Dunyo va bilish haqidagi pozitivistik taʼlimot; O.Kontning ijtimoiy-siyosiy kontseptsiyasi. G.Spenserning qarashlari. Ijtimoiy-sotsiologik nazariyasi; Evolyutsiya va uning qonuniyati haqidagi taʼlimoti. Birinchi pozitivizmning ahamiyati. J.Mill va mantiqdagi pozitivistik gʻoyalar.

Neokantchilikning ijtimoiy-tarixiy va gʻoyaviy-nazariy asoslari, asosiy oqimlari va xususiyatlari. Neokantchilikning fiziologik yoʻnalishi namoyondalari -

O.Libman (1840-1914), G.Gel'mgol'ts (1821-1894), F.A.Lange (1828-1875). F.A.Langening «Ishchi masalasi»da ijtimoiy qarashlari.

Neokantchilikning marburg maktabi namoyandalari - G.Kogen (1842-1918), P.Natorp (1854-1924), E.Kassirer (1874-1945), G.Fayxinger (1852-1933). G.Kogen matematik tabiiyotshunoslik haqida. G.Kogenning «axloqiy sotsializmi». P.Natorp «aniq fanlarning mantig'i» haqida. E.Kassirer- fan tarixchisi. Uning simvolik shakllar falsafasi. Neokantchilikning ijtimoiy kontseptsiyasi.

### **Farbiy Yevropa mamlakatlarida irratsionalizm.**

#### **Artur Shopengauerning iroda falsafasi**

Farbiy Yevropa mamlakatlarida irratsionalizmning shakllanishi. Artur Shopengauer (1788-1860) - irratsional oqim namoyandasi. Dunyo - tassavur sifatida. Dunyo iroda sifatida. Shopengauer - Gegel' falsafiy sistemasining tanqidchisi. Axloqiy pessimizmi. Buddizmga munosabati. Estetik qarashlari. San'at -bu irodaning namoyon bo'lishi. Ijtimoiy- siyosiy fikrlari. Shopengauer ijodining «hayot falsafasi»ga ta'siri.

#### **Fridrix Nitshe falsafasi**

«Hayot falsafasi»ning vujudga kelishi, uning ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy-nazariy asoslari hamda mohiyati. F.Nitshe dunyoqarashini shakllanishiga «Yunon mabudlarining» va afsonalarining ko'rstgan ta'siri. «Hayot» tushunchasi. «Komil inson» haqidagi ta'limot. «Hokimiyatga intilish» - insoniyat tarixini harakatga keltiruvchi kuch. F.Nitshe etikasi. Dinga bo'lgan munosabat. «Abadiy qaytish» to'g'risidagi afsona. Nitsshechilikning taqdiri.

#### **Osvald Shpenglarning tarix falsafasi**

Osvald Shpengler (1880-1936)ning hayoti va ijodiy faoliyati. Tarix falsafasi. Tarix - bu kechinmalar majmuasi. Tarixning davriyligi. Tarixiy taraqqiyot - bu yo'q narsa. Tarix - yopiq sistemadir.

O.Shpenglarning ijtimoiy -siyosiy kontseptsiyasi. «Evropa quyoshining botishi» asari. Madaniyat va sivilizatsiya haqidagi fikrlari. Madaniyat ruhiyati va fatalizm (taqdir) to'g'risidagi qarashlari. Shpengler falsafasining g'arb ijtimoiy fikr taraqqiyotiga ta'siri.

#### **Anri Bergson intuitivizmi**

A.Bergson falsafiy ta'limotining ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy nazariy manbalari. «Hayot falsafasining» frantsuzcha talqini. «Hayotiy jo'shqinlik» - evolyutsiyani harakatlantiruvchi kuch. Biologiyadagi mexanitsizm tanqidi, evolyutsiyaning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi fikrlari. A.Bergson falsafasida inson muammosi «Davomiylik» - insonning «hayotiy jo'shqinligining» namoyon bo'lishi sifatida: davomiylik ijodiy jarayon sifatida; davomiylik biologik vaqt sifatida; davomiylikning, xotira va intellektning inson hayotidagi roli. Instinkt va intellekt. «Intellektual intuitsiya» haqidagi ta'limot. A.Bergsonning hayotiy tarix falsafasi hamda ochiq jamiyat haqidagi qarashlari.

#### **Frensis Bredli falsafasi**

Angliyada mutloq idealizm oqimining vujudga kelishining ma'naviy-g'oyaviy asoslari. Mutloq idealizm namoyandalari Dj.Sterling (1820-1909), E.Kerd (1835-1908), T.X.Grin (1836-1882), F.Bredli (1846-1924). F.Bredlining ilk asarlarida Gegel' falsafasiga bo'lgan munosabat. Formal mantiq tanqidi.

F.Bredlining dialektika to'g'risidagi ta'limoti. Salbiy dialektika haqida. Reallik va mutloqlik. Mutloq idealizmning ijtimoiy kontseptsiyasi. Davlat yaxlitlik sifatida. Mutloq idealizmning keyingi taqdiri. B.Bozanketning davlat haqida qarashlari.

Pragmatizmning ijtimoiy-tarixiy, nazariy-g'oyaviy asoslari. Amerika-pragmatizmning vatani.

Charlz Pirs (1839-1914) - pragmatizm asoschisi. Bilish masalalarining qo'yilishi, «shubha-ishonch» ta'limoti. E'tiqodni mustahkamlash usullari. Haqiqat kontseptsiyasi.

Uilyam Djems (1842-1910) pragmatizmi. Falsafiy temperamentlar haqidagi ta'limot. Pragmatizm bahsli munozaralarni hal qilish uslubi sifatida. Bilishda «tajriba» va iroda ahamiyatining o'ziga xos talqini.

Pragmatizm namoyondalarining ijtimoiy-axloqiy qarashlari. Pragmatizmning keyingi taqdiri.

### **Syoren Kьerkegorning ekzistentsialistik falsafasi**

Syoren Kьerkegor (1813-1855)ning xristianlik ruhidagi ekzistentsialistik falsafasi. Inson muammosi qo'yilishi va hal etilishi. Shaxsning uch tipligi haqdagi fikrlari (estetik, axloqiy, diniy). Aqlning tanqidi. Gegelь falsafasini tanqid.

S.Kьerkegor - chuqur shaxsiy xarakterga ega bo'lgan falsafa targ'ibotchisi. Falsafada «tanlash» muammosi. «Qo'rquv», «umidsizlanish», «qat'iyat» tushunchalarining ishlab chiqilishi.

S.Kьerkegor falsafasining XX asr ekzistentsializmiga ta'siri.

### **Germaniyada ekzistentsializm**

Ekzistentsializm falsafasining nazariy asoslari. E.Gusserlning fenomenologik ta'limoti, uning nemis ekzistentsializmi shakllanishi va rivojiga ta'siri.

M.Xaydegger (1889-1955) ekzistentsializmi. Borliq masalasi. fenomenologik uslub Inson ,uning erkinligi masalasi ,tanlash, o'lim oldidagi qo'rquv, yashash mas'uliyati. Til «borliq uyi» sifatida.

K.Yaspers (1883-1969)ning ekzistentsialistik qarashlari. Mavjudlik va ekzistentsiya. Chegaraviy vaziyatlar, ularning turlari. Tarix falsafasi. «Shifr» haqidagi fikrlari. Dinga bo'lgan munosabat.

Nemis ekzistentsializmining o'ziga xos tomonlari, boshqa oqimlarga ta'siri, hozirgi kundagi ahamiyati.

### **Frantsiyada ekzistentsializm**

Frantsiyada ekzistentsializmning vujudga kelishi va rivoji, uning nazariy manbalari.

J.P.Sartr (1905 yilda tug'ilgan),uning fenomenologik borliq, «Borliq o'zida» va «o'zi uchun borliq»haqidagi fikrlari. Borliq va bo'shliq. Erkinlik masalasi. Tanlash va mas'uliyat. Dinga munosabati.

A.Kamyu (1913-1960) falsafiy qarashlari evolyutsiyasi. Insonning tabiatdan va insonni boshqa insonlardan begonalashishi masalasi. Hayot mazmuni, absurdlik; umuminsoniy qadriyatlarning A.Kamyu ijodida salohiyatli o'rin egallashi. Dinga munosabati.

### **Frantsuz ekzistentsializmining keyingi taqdiri.**

## **Neopozitivizm**

Neopozitivizmning shakllanishi va rivoji. Falsafiy masalalarning stsiyentistik tarzda qo'yilishi. Mantiqiy tahlil falsafasi va verbalizatsiya masalasi.

B.Rassel (1872-1970) ning diskriptsiya haqidagi ta'limoti. Mantiqiy atomizm kontsepsiyasi. Matematik mantiq nazariyasi.

L.Vitgenshteyn (1889-1951) mantiq haqida. Yagona ilmiy-mantiqiy til yaratish to'g'risidagi ta'limoti.

Freydizm da inson masalasi

Psixanalitik oqimning vujudga kelishi. Z.Freydning (1856-1939) ijtimoiy-falsafiy qarashlari Z.Freyd insonning hirsiy tabiati haqida. «Edip kompleksi» va libido tushunchalari. Z.Freydning dinga munosabati.

K.Yungning inson haqidagi mulohazalari va ularning Z.Freyd qarashidan farqi. Ruhiiy energiya haqidagi ta'limot. Psixologik tiplar.

### **D) O'ZBEK FALSAFASI VA UNING TAKOMIL BOSQICHLARI**

“O'zbek falsafasi” tushunchasi. O'zbek falsafasining tarixiiy ildizlari: Samarqand, Buxoro, Xorazm falsafasi, “Avesto falsafasi”, “Movarounnahr falsafasi” yoki “Turkiston falsafasi”.

O'zbek falsafasi tushunchasi xalqimizning falsafiiy tafakkuri, ongi va dunyoqarashining rivojlanish bosqichlari, tushuncha va kategoriyalari, ma'naviiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydigan qadimdan bugungi kungacha yetib kelgan ilmiy-falsafiiy meros ekanligi. O'zbek falsafasi va xalqimizning ma'naviiy qiyofasi. O'zbek falsafasi va barkamol avlodni tarbiyalash. O'zbek falsafasi va mustaqillik. O'zbek falsafasining yangilanish jarayoni. Falsafani yangi bosqichga ko'tarish ehtiyojlari.

### **Qadimii davr o'zbek falsafasi**

Xalq og'zaki ijodi-falsafiiy tafakkur sarchashmasi. Eng qadimii o'zbek mifologiyasidagi afsonaviiy qahramonlar: To'maris va Shiroq, Spitamen va Alp Er To'ng'a (Afrosiiyob), O'g'iz Xon, Go'ro'g'li, Alpomish. Zardo'sht ta'limoti va “Avesto” falsafasi. Qadimii turkiy bitiklar: To'nyuquq, Kul Tegin, Bilga Xoqon, Ungin, Moyun Chur, Uyuq Tarlak, Uyuq Tuman, Elegesh, Begra, Chako'l, Achur, Oltinko'l, Uybat va Irq bitiklari o'zbek falsafasining ilk sarchashmalari. Moniiy va Mazdak ta'limoti.

### **Ilk o'rta asrlar (uyg'onish davri) falsafasi**

Al-Xorazmiiy, Farg'oniiy, Imom Buxoriiy, at-Termiziiy, Forobiiy, Abu Rayxon Beruniiy, Ibn Sino, Zamaxsharii o'z davrining intellektual salohiyatini belgilovchi buyuk siymolar. Islomiiy madaniyat va milliiy falsafiiy tafakkur. Islom falsafasi va komil insonni shakllantirish muammolari. Islomda mashaabchilik va ilohiiyot masalalari. Islomdagi hanafiiylik, ash'ariiylk, jabariiylk, qadariiylk, sifatiiylk, mo'rjii'iylik va mu'tazililik kabi mazhaablar va ularning xususiyatlari. Diniy bag'rikenglik va dunyoviiy bilimlar. Ismiiy al-Buxoriiy(810.21.7, Buxoro-870.31.8.) ta'limotida inson ahloqi, odobi, ma'naviiy kamolotiga doir ijtimoiy hodisalarning uyg'unligi. A.-Termiziiy (824-892 yy.) asarlarida ilm egallash, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabat, ularning haq-huquqlari, ta'lim-tarbiya, xulq-odob qoidalari, halollik, poklik, saxiiylik, adolat, insof va boshqa insoniiy qadriyatlar bayoni. Abu Mansur Moturudiiy (mi.944 yilda vafot etgan) Moturudiiy

ta'limotida kalom falsafasi. Moturudiy qarashlarida Oллоh, inson, imon, olam, ilm va aql masalalarining yetakchilik maqomi. Motrudiya maktabi musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi oliy maskan ekanligi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning (783, Xorzm-850, Bag'dod) ilmiy dunyoqarashi va falsafiy tafakkuri. Xorazmiy falsafiy qarashlarida dialektik birlik va kurash qonunlarini namoyon bo'lishi. Xorazmiyning bebaho ilmiy –falsafiy ta'limotining muhim qirralari. Xorazmiy falsafasi va inson. Jamiyat istiqboli va taraqqiyotida ilm-fan va madaniyatning , odob-axloqning, islom dini va shariatning uyg'unligi masalalari. Ahmad ibn Muhammad Farg'oniy falsafasida olamning manzarasi masalasi. Farg'oniy ilmiy merosi va hozirgi zamon. Abu Nasr ibn Muhammad ibn O'zluh Tarhon Forobiy (873 yilda Sirdaryo qirg'og'idagi Farob shahrida tug'ilgan). Uning "Falsafa manbalari", "Falsafani o'rganishdan avval nimalarni o'rganish lozim", "Falsafiy masalalar va ularga javoblar", "Aql haqida risola", "Fozil odamlar shahri" asarlarida falsafiy ta'limot xususiyatlari. Forobiyning musulmon olamida "Sharq Arastusi", "Ikkinchi muallim" deb atalishining sabablari. Forobiy falsafiy qarashlarida falsafiy tafakkur muammolari. Forobiy falsafasida aql tushunchasi. Forobiy va G'arb falsafasi. Forobiy falsafasida moddiy borliq va olam tushunchasi. Forobiy va bilish muammolari va metodlari. Forobiyning adolatli, fazilatli jamiyat, davlatni desmokratik boshqarish to'g'risidagi falsafiy qarashlari. Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048 yy) va uning tabiiy va ilmiy qarashlari. Beruniyning borliq to'g'risidagi g'oyalari bilan uning tabiiy-ilmiy qarashlari o'rtasidagi uzviylik. Beruniy dunyoqarashida bilish muammolari. Beruniy falsafasida jamiyat va inson masalalari. Abu Ali Ibn Sino (980 yilda Buxoro shahri yaqinidagi Afshona qishlog'i- 1037 yilda Hamadon shahri). Mutafakkir falsafiy qarashlarida aql muammolari. Ibn Sino ta'limotida "Vujudi vojib" g'oyasi. Ibn Sino falsafasida voqelikni bilish jarayoni in'ikos ta'limoti bilan bog'lashi. Ilm va axloq masalalari. Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad Zamaxshariy falsafa va ahloq ilmida buyuk g'oyalar yaratgan alloma. Zamaxshariy falsafasida mo'tadila mazhabi g'oyalarining ta'siri. Mutafakkirning ilmning jamiyatdagi o'rni haqidagi qarashlari. Zamaxshariy falsafasida ijtimoiy hamkorlik va insonparvarlik g'oyalari.

Tasavvuf falsafasi va uning xususiyatlari. Tasavvuf ta'limoti va dunyoni ilmiy tushunish masalalari. Ahmad Yassaviy(XI asrning 2-yarmida tug'ilgan-1166 (hijriy 561 yilda vafot etgan) diniy ahloqiy falsafasi va uning mohiyati. Najmiddiy Kubro (1154-1226 yy) tasavuffiy qarashlarining falsafiy jihatlari. Bahovuddin Naqshband (1318-1389) "Dilba yoru dast ba kor " shorining falsafiy talqini. Naqshbandiylik ta'limotida ixtiyoriy faqirlik masalalari.

### **Temuriylar davri falsafasi**

Amir Temur (1336-1405) ning "Temur tuzuklari" asari uning falsafiy qarashlarining majmui sifatida. Amir Temur va ilm-fan. Uning tasavvuf ta'limotiga munosabati. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394-1449) ning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlarining uyg'unligi. Ulug'bek ta'limotida aql va ilmiy haqiqat masalalari. Komil inson va uni shakllantirish muammolari. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (1441-1501) ijtimoiy-falsasif qarashlarining majoziy xususiyatlari. Uning falsafasida zohiriylik va botiniylik masalalari. Alisher

Navoiyning insonparvarlik g'oyalari. Mutafakkirning adolat ilm-ma'rifat va ahloqiy qarashlarining falsafiy asoslari. Kamolddin Xusayn Voiz Koshifiy (taxminan 1440-1450-1505 yillar) ning axloq falsafasiga qo'shgan hissasi. Uning adolat haqidagi g'oyalari. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yy) Boburning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining uyg'unligi. Bobur va Naqshbandiylik.

### **XVI-XX asr boshlarida falsafiy tafakkur**

Yusuf Qorabog'iy (1565-1647) ning falsafiy qarashlari va uning xususiyatlari. Uning to'rt unsur borliqning asosi g'oyasi ruh va moddiylik o'rtasidagi munosabat masalasi. Yusuf Qorabog'iy falsafasida "tanosuh" nazariyasini (reinkarnatsiya), ya'ni ruhning bir tanadan ikkinchisiga ko'chib yurish ta'limotini inkor qilishi. Boborahim Mashrab (1640-1711yy) falsafasi va "Anal Haq" ta'limoti. Mashrab tasavvufiy qarashlarining o'ziga xos xususiyatlari. So'fi Olloyor qarashlarining ijtimoiy -axloqiy jihatlari. Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721). "Vahtad ul vujud" oqimi tarafdori sifatida. Bedil asarlarida hamma narsaning asosida havo yotadi g'oyasining ifodalanishi. Mirzo Bedil falsafasida dunyoni bilish masalalari. Bedil falsafasida tanosuh g'oyalariga munosabat. Jadidlar dunyoqarashining falsafiy asoslari.

### **Mustabid tuzum mafkurasi va O'zbekiston falsafasi**

Totalitar mafkuraning falsafaga ta'siri. Falsafiy ta'limotlarning zamon bilan hamnafasligi. Mustaqillik falsafasi va uning xususiyatlari. O'zbekiston falsafasining zamonaviy yo'nalishlari.

### **ENG YA'NGI DAVR XORIJIY SHARQ FALSAFASI**

Jamoliddin Afg'oniy va Muhammad Abdo qarashlarida Islom reformatorligi g'oyasi

Musulmon islohotchiligi g'oyasi an'anaviy jamiyatning zamonaviylashtirish jarayonining ifodasi sifatida. Uning ma'rifatparvarlik bilan bog'liqligi. Al-Afg'oniyning diniy-falsafiy va siyosiy qarashlari. Afg'oniy tomonidan islomni yangilash g'oyasining targ'ib etilishi.

«Diniy islohotchilik harakati» Misr shayxi Muhammad Abdo talqinida. Muhammad Abdoning asosiy asarlari. Uning «Qur'on sharhi» asari. Abdo qarashlarida e'tiqod, aql va inson irodasi talqini. Uning taqdir haqidagi varashlari. Uning Yevropa tajribasiga munosabati. Muhammad Abdoning Misr mufti sifatidagi faoliyati. Diniy islohotchilik fatvolari. Al-Azharni isloh etish harakatlari.

### **Arab mantiqiy pozitivizmi, ekzistentsializmi, personalizmi.**

Arab falsafasi XX asr mantiqiy pozitivizm vakili, Misrlik Zakiy Najib Mahmudning hayoti va ijodi. Mahmud qarashlariga avstriya mantiq maktabining ta'siri. Zakiy Najib Mahmud mantiqiy pozitivizmining uning «Metafizika absurdi» (1951), «Mantiqiy pozitivizm» (1961), «Ilmiy falsafaga doir» (1962) asarlarida va «Zamonaviy tafakkur» (1962) jurnalida aks etishi. Mahmud qarashlarida «aql» va «ratsionallik» tushunchalari talqini.

Abduraxmon Badaviyning arab ekzistentsializmi. Badavi qarashlariga M.Xaydeggerning ta'siri. Tasavvufda ekzistentsializm ildizlarining izlanilishi. O'lim masalasi. «Vaqt», «erkinlik», «intuitsiya» kategoriyalarining analizi.



Frantsuz personalizmining Muhammad Aziza Lahbaviy qarashlariga ta'siri. Muhammad Aziza Lahbaviyning «Realistik personalizm» g'oyasi. Muhammad Aziza Lahbaviyning bilish, jamiyat, sivilizatsiya haqidagi qarashlari.

### **Zamonaviy Eron falsafasining ayrim masalalari.**

Ali Shariati – Eron inqilobi mafkurachisi. Shariatining panteistik g'oyalari va uning ontologiyasi. Unga G'arb falsafasi namoyandalarining ta'siri (Dekart, Toynbi va b.) Shariati antropologiyasi. Faylasuf va iloxiyotshunos Ali Shariat ta'limotida shiizmning zamonlashtirish (modernizatsiya). XX asrning 80 — yillarda Eronda ruxoniylar siyosiy aktivligining oshishi. Shia ruhoniylari - revolyutsiya va xokimiyat boshchilari. Shiit ruxoniylarining g'oyaviy — siyosiy holati. Oliy xokimiyat to'g'risidagi shiitlar ta'limoti. Eronning ijtimoiy — siyosiy xayotida shiit ruxoniylarining roli. Erondagi islom xokimyatining falsafiy — siyosiy va diniy printsiplari.

### **Zamonaviy hind falsafasi.**

Shri Aurobindo Gxosh qarashlari evolyutsiyasi. «Integralizm» - boshqaruvchi tamoyil. A.Gxosh ta'limotida aql tushunchasi. Rabindranat Tagor dunyoqarashi. Maxatma Gandining falsafiy-ahloqiy ta'limoti. Zo'ravonlikka qarshi kontseptsiya. Sarvepalla Radxakrishnanning «Abadiy din» gumanistik tizimi . Djavaxarlal Neru dunyoqarashi.

### **Zamonaviy Koreya va Yapon falsafasi.**

Koreya va Yapon anneksiya nntellektual muhiti davrida falsafiy fikrlar. Turli mistik xarakterdagi yapon sektalarining jonlanishi. Koreyada pozitivizmning tarqalishi va uning konfutsiylik va buddizam bilan munosabati. Koreyaning 1953 yilgi ajralib chiqishidan so'ng taraqqiyoti. «Chuchxe» - shimoliy Koreya falsafasi. Janubiy Koreyada falsafaning rivojlanishi. An'naviylikni g'arb falsafasi doktrinalari bilan muvofiqlashtirishga urinish, ( konfutsianstvo – pragmatizm, dzen- filofosiya Vitgenshteyna, koreyskaya filofosiya, sovremennoe ekologicheskoe myshlenie i.t.d.)

Tanab Madjim ta'limotida yaponiya kiot maktabi an'analari davom ettirilishi. Uning tarix falsafasi. Kiot maktabining boshya namoyandalari Xatano Seyto, Vatsudzi Tetsedzo, Yanagida Kendzyuro ijodi. Ular ijodida tarix falsafasi, sotsial' psixologiya, falsafa tarixi masalalari.

Mashhur yapon faylasufi Rayseku Teytaro Sudzuki ijodida g'arb va Sharq falsafasining qiyosiy o'rganilishi. Inoue Tetsudziro qarashlarida yapon millatparvarligi ideologiyasi. Yapon falsafasi tarixini o'rganilishida ilofosii Nagatoy Xirosining o'rni.

## **IJTIMOIIY FALSAFA**

Falsafa va ijtimoiy falsafa, ular ortasidagi umumiylik va aloqadorlik. Ijtimoiy falsafaning bahs mavzusi, predmeti, organish obekti. Ijtimoiy falsafaning jamiyatdagi orni va asosiy funksiyalari. Ijtimoiy falsafaning ijtimoiy – gumanitar fanlar tizimida tutgan orni.

### **Ijtimoiy falsafa tarixi bosqichlari.**

Ijtimoiy falsafiy fikrlarning shakllanishi va taraqqiyoti. Eng qadimiy davrlardan XIX asrlarga qadar. XIX asrda ijtimoiy falsafa. Ijtimoiy falsafaning fan

sifatida falsafadan ajralib chiqishi. XX asr ijtimoiy falsafasi. Prezident I.A.Karimov asarlarida ijtimoiy falsafa masalalari.

### **Ijtimoiy bilishning obekti va subekti.**

Ijtimoiy bilish, uning mohiyati va mazmuni Ijtimoiy bilishning obekti Jamiyat ijtimoiy falsafaning tadqiqot obekti sifatida. Jamiyat hayoti va uning oziga xos jihatlari. Barqarorlik va beqarorlik. Onglilik va ongsizlik. Tartib va tartibsizlik. Jamiyat yaxlit tizim sifatida. Jamiyat hayotining asosiy sohalari. Axborotlashgan jamiyat. Ozbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyati.

### **Inson omili, uning ijtimoiy taraqqiyotdagi rolining oshib borishi.**

Ijtimoiy siyosatda inson omili va manfaatlarning uygunligi. Jamiyat hayoti va taraqqiyoti tabiiy va ijtimoiy omillari. Inson tabiat va jamiyat, ular orasidagi uzviy aloqadorlik. Jamiyatga taraqqiyotning tabiiy omillari: geografik muhit, demografik omil. (Aholi zichligi). Geografik muhit va uning jamiyatga tasiri. Tabiat jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy asosi va sharti. Geografik muhit va uning jamiyatga tasiri. Tabiat jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy asosi va sharti. Kosmosfera, noosfera, biosfera tushunchalari togrisida. V.M.Vernadskiyning noosfera konsepsiyasi. Jamiyat hayoti va taraqqiyotiga tasir etuvchi ijtimoiy omillar. Ishlab chiqarish. Moddiy ishlab chiqarish. Manaviyat. Madaniyat. Qadriyatlar. Milliy goya.

### **Ijtimoiy bilishda baholashning orni.**

Baholashda. haqiqatning o'rnini. Ilmiy bilish, uning mohiyati, usullari va asosiy shakllari. "Ilmiy bilish". tushunchasi. Ilmiy bilishning empirik va nazariy bilish. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muxim o'rin egallab kelmokda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nixoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muxim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus soxasi — gnoseologiya vujudga keldi.

### **Shaxs kamolotining ijtimoiy falsafiy masalalari.**

Inson – jonli mavjudotning alohida tipi Insonning o'zini o'zi hamda tashqi dunyoni bilishi zarurligi va imkoniyatlari Insonning yaratilishi to'g'risidagi diniy qarashlar va kelib chiqqanligi haqidagi ananaviy ilmiy nazariyalar. Erkin fuqarolik jamiyati va shaxs. Zamonaviy shaxs nazariyasidagi asosiy goyalar. Individ, individuallik va shaxs. Hozirgi zamon sivilizasiyasining ijtimoiy qiyofasiga tasiri. Shaxs ijtimoiylashuv jarayonini maxsuli. Mustaqil fikrlash-shaxs mustaqilligining asosi. Shaxs mustaqilligini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy fazilatlar: aqliy zukkolik, axloqiy poklik, huquqiy kamolot. Mehnatga halol munosabat, siyosiy yetuklik, madaniy saviya. Demokratiya tamoyillarining milliy manaviyatimizga mosligi.

### **Jamiyat oz-ozini tashkillashtiruvchi tizim sifatida**

Jamiyat - kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli. Jamiyat tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qiladi. Jamiyatimiz sotsial tizimining muayyan konkret shakli sifatida, uning funktsional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarning o'ziga xos tomonlarini ifodalaydi. Jamiyat o'zaro

munosabatlarini ilmiy jihatdan o`rganib, to`g`ri boshqarish muhim ahamiyatga ega. Jamiyat hayotining asosiy sohalari. Axborotlashgan jamiyat. Fuqarolik jamiyati. Ozbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyati.

### **Jamiyatning manaviy borligi**

Manaviyat. Borlig Jamiyatning manaviy borligi . Manaviy hayotining tarkibiy elementlari. Manaviy ehtiyoj. Manaviy munosabat. Manaviy ishlab chiqarish, uning mohiyati. Manaviy ozlashtirish. Jamiyat manaviy hayotida vorislik va yangilanish. Ijtimoiy ong – jamiyat manaviy hayotining asosi. Ijtimoiy ong sohalari. Kundalik va nazariy ong. Ijtimoiy ong darajalari. Ijtimoiy ruhiyat. Milliy goya va ijtimoiy taraqqiyot. Ijtimoiy ong shakllari. Sanat. Fan. Falsafa. Manaviyatning hozirgi zamon talqini. Manaviyat. Manaviy hayot. Manaviy tiklanish va taraqqiyot. Talim tizimini isloh qilish – jamiyat manaviy hayotini takomillashtirishning muhim omili.

Ijtimoiy innovasiyalarning fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishiga tasiri.

Ijtimoiy innovasiya iborasining mazmun-mohiyati. Ijtimoiy innovasiyalar fuqarolik jamiyati rivojlanishining omili sifatida. Virtual borliq texnologik innovasiyalarning goyaviy asosi. Fuqarolik jamiyati rivojlanishiga axborot-kommunikasion texnologiyalarning tasiri. Texnologik innovasiyalar zamonaviy taraqqiyotning kafolati sifatida. Fuqarolik jamiyati anaanaviy tushunchalarining texnologik rivojlanish natijasidagi ozgarishlar va yangi qirralarning ochilishi. Ijtimoiy innovasiya tushunchasi. Ijtimoiy innovasiylarning qollanilishi. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy fuqarolik jamiyatining bogini sifatida. Innovasion faoliyatining boshqarish mexanizmlari va fuqarolik jamiyati.

### **Axborot sohasini isloh qilish, axborot va soz erkinligini taminlash.**

Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida axborot sohasini isloh qilish, soz va axborot erkinligi. Ommaviy axborot vositalarini jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolar erkinligini taminlashning muhim sharti sifatida. Axborot va soz erkinligini taminlashning asosiy usullari. (Ochiq muloqot, Xalqaro Press klub, Yoshlar Press klubi) Fuqarolarning elektron murojaatlari va —Xalq qabulxonalari.

### **Jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligi.**

Jamoatchilik nazorati tushunchasi. Jamoatchilik nazorati tizimi, subektlari, shakllari va turli korinishlari. Vakolatli fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazorati. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini taminlash mexanizmlari. Jamoatchilik nazorati togrisidagi qonunning qabul qilinishi va uning ahamiyati.

### **Ijtimoiy sheriklik.**

Ijtimoiy sheriklik tushunchasi va uning talqinlari. Ijtimoiy sheriklikning rivojlanishining nazariy-huquqiy asoslari. Hamkorlik va ijtimoiy sheriklik. Ijtimoiy sheriklikning turlari, maqsad va vazifalari, subektlari, tashkiliy-huquqiy mexanizmlari. Ijtimoiy sheriklik togrisidagi qonunning qabul qilinishi va ahamiyati.

### **Jamiyat hayoti ijtimoiy – iqtisodiy borligi.**

Jamiyatning ijtimoiy hayoti borligi tushunchasi. Jamiyatning ijtimoiy hayoti tushunchasi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va uning asosiy elementlari. Jamiyatning

etnik tarkibi. Urug. Qabila. Elat. Millat. Milliy va millatlararo munosabatlar. Milliy hamjihatlik, millatlararo hamkorlik va hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot omili. Jamiyatning demografik tarkibi. Jamiyatning sinfiy tarkibi. Jamiyatning iqtisodiy hayoti tushunchasi. Moddiy ishlab chiqarish jamiyat iqtisodiy hayotining asosi. Texnika taraqqiyotida fanning tutgan orni. Fan-texnika inqilobi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari. Mulkiy munosabat - ishlab chiqarish munosabatining asosi sifatida.

Hozirgi zamon sivilizasiyasi jarayonida fan va texnika taraqqiyoti. Tafakkur tarixida texnika tushunchasi. Fan - ilmiy bilimlar tizimi. Fan – ijtimoiy institut. Fanlar klassifikatsiyasi. Fandagi differentsiatsiya va integratsiya jarayonlari. Ilmiy bilimlar taraqqiyotidagi vorisiylik. Fanning shakllanishi va taraqqiyoti. Qadimgi Sharq mamlakatlarida qastlabki ilmiy bilimlarning shakllanishi. Qadimgi Yunonistonda falsafa fani taraqqiyotidagi ning vujudga kelishi. Markaziy Osiyoda ilmiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyoti. Xorazm Mamun akademiyasi olimlarining jahon fani taraqqiyotiga orni va roli.

XVI-XVII asrlarda Yevropada fan. Fan taraqqiyotining tarixiy bosqichlari. Klassik fan. Noklassik fan. Postnoklassik fan. Hozirgi zamon fani va uning oziga xos xususiyatlari. Axborotlashgan jamiyat va fan. Ozbekistonda ilm-fan rivojlanishining asosiy yonalishlari.

#### **“Qonun”-ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida.**

Qonun tushunchasi uning mazmun va mohiyati. Qadimgi Garb va Sharq faylasuflarining qonun togrisidagi qarashlari. Jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunlari. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining shakllanish va amal qilishi. Ehtiyoj va manfaat ijtimoiy qonunlar talablarining dastlabki ifodasidir.

#### **Qonun ustuvorligi - fuqarolik jamiyatining muhim omili.**

Qonun ustuvorligi tushunchasi. Fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi. Hokimiyatlarning bolinish tamoyili va konseptual asoslari. Konstitutsiya va qonunlarda adolat hamda inson manfaatlarining ustuvorligi. Qonun ustuvorligini taminlash mexanizmlarining ishlab chiqilishi. Fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuygusini shakllantirish. Sud-huquq tizimini isloh qilish. Demokratik talablarga mutanosib keladigan mustahkam qonunchilik bazasining yaratilishi.

#### **Madaniyat tushunchasi va uning oziga xos jihatlari.**

Madaniyat tushunchasi. Moddiy va manaviy madaniyat. Madaniyatning shakllanish va rivojlanish tarixi. Madaniyatlar tarixining jamiyat tarixi bilan uzviy aloqadorligi. Madaniyat haqidagi qarashlar. Madaniyatning jamiyatda tutgan orni. Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik. Sivilizatsiya madaniy – manaviy rivojlanishning mahsuli sifatida. Mustaqillik va madaniyatimiz taraqqiyotining istiqbollari. Yuksak madaniyatli inson, barkamol shaxsni tarbiyalash – fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning muhim omili.

#### **Qadriyatlar tushunchasi va uning oziga xos jihatlari.**

